

THE USE OF PRACTICAL TASKS IN FORMING STUDENTS' COMPETENCE IN USING GEOGRAPHICAL MAPS

Orifjon Ungarovich Ergashev

senior lecturer

Jizzakh Region National Center for Training Teachers in New Methods

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: competency, competence, competitive approach, subject competency

Abstract: This article shows the formation of learner's competency in using the maps on geography subjects with the help of practical examples.

Received: 15.09.24

Accepted: 17.09.24

Published: 19.09.24

O'QUVCHILARNING GEOGRAFIK XARITALARDAN FOYDALANISH KOMPETENSIYASINI SHAKILLANTIRISHDA AMALIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Orifjon Ungarovich Ergashev

katta o'qituvchi

Jizzax viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, xususiy kompetensiya

Annotatsiya: Maqolada asosan geografiya darslarida o'quvchilarning xaritalar bilan ishlash kompetensiyasini shakillantirishda amaliy topshiriqlardan foydalanish usullari ko'rsatilgan.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ КАРТ

Орифжон Унгарович Эргашев

старший преподаватель

Джизакский областной национальный центр подготовки учителей новым методам

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Компетенция, компетентность, компетентный подход, предметная компетенция

Аннотация: В этой статье показаны формирование у учащихся компетенции использования карты на уроках географии с помощью практических примеров.

KIRISH

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Geografiya fanidan tabiiy jarayon va hodisalarni kuzatish, tushinish va tushuntirish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni kuzatish, tushinish va tushuntirish, ekologik madaniyat, geografik atlas va xaritalardan foydalana olish, geografik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kabi xususiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak.

O'quvchilarda fanning xususiy kompetensiyalarini shakllantirishda pedagog kadrlar ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni taqozo etadi. Buning uchun har bir o'quvchining o'zi kompetentli bulishi kerak.


ASOSIY QISM

Kompetentlilik deganda (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining uning ijtimoiy-professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolar hal qilishga yetariligi hamda haqiqiy moslik darajasi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. Demak, har bir o'qituvchi o'z ustida tinmay izlanib, ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qullay olish mahoratlarini oshirib borishi zarur.

Ma'lumki, geografiyani xaritasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xaritalar geografiya ta'limida asosiy o'qitish vositasi xisoblanib, u geografiya o'rganadigan barcha voqea va hodisalar haqida hiqoya qila oladi. Xarita geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbayidir. Shuning uchun ham geografik xaritalardan o'qitishning barcha shakllarida: dars berishda, amaliy ishlarda, mustaqil ishlarda, bilimlarni bohalashda va darsning barcha bosqichlarida: uy vazifasini so'rash, yangi mavzuni tushintirish, yangi mavzuni mustahkamlashda, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va ularni yechishda hamda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda foydalanish mumkin. Masalan:

O'quvchilarning geografik atlas va xaritalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishda quydagi topshiriqlardan foydalanishimiz mumkin. Masalan:

1-topshiriq. Quydagi chizilmada A va V nuqtalar qaysi yarim sharlarda joylashganligini aniqlang:




Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilarda globus va xaritada daraja turidan foydalanib geografik ob'ektlarning koordinatalarini aniqlash kompetensiyalari shakillanadi.

2-toshiriq: Karta va globusdagi daraja to'ridan foydalanib Avstraliya hamda Antarktida orasidagi eng qisqa masofani aniqlang.

Bu topshiriqni bajarish uchun biz globus, atalas yoki dunyoning tabiiy xartasidagi daraja turlaridan foydalanamiz. Avstraliya va Antarktida orasidagi eng qisqa masofa qaysi uzunlikdan utganini aniqlaymiz. Masalan bu 143° sh.u orqali o'tadi deylik. Shu meridian bo'ylab Avstraliyaning eng janubiy nuqtasi qaysi kenglikdan o'tganini aniqlaymiz. Bu 38° j.k o'tadi. Antarktidaning eng shimoliy nuqtasi esa 67° j.k o'tadi. Undan keyin 67° dan 38° ni ayirib tashlaymiz va chiqqan soni 111km ga ko'paytiramiz. Sababi 1° meridian uzunligi 111km ga teng.

$67^{\circ} - 38^{\circ} = 29^{\circ}$, $111\text{km} \times 29^{\circ} = 3219 \text{ km}$ **Javob:** 3219 km.



Yuqarida toshiriqni matematik usulda bajargan bo'lsak, endi buni yozuvsiz xaritada yoki taxtada quydagi chizmalarda kursatib bersak yanada tushinarli buladi. Undan tashqari o'quvchilarning globus, atlas va xaritalardan foydalanish kompetensiyasi shakillantirishga erishish mumkin. Hamda taxtada chizmalarni chizish orqali ularning tasavurlari ortadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkin o'quvchilarning geografik xaritalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakillantirishda yuqoridagi topshiriqlar ustida ko'proq ishlab,

beriladigan savollarni xarita bilan bog'lashga xarakat qilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Geografiya o'quv fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lim tizimining Davlat ta'lim standarti. T. 2017 yil 6 aprel, VM 187-sonli qarori.
2. Atlas. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. 6-sinf uchun. T.:2020.
3. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. 6-sinf uchun darslik. 2017.
4. R.Ishmuxammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.2013.